

XITOIY TILIDA ASINDETONNING IFODALANISH XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7351376>

ABDULLAYEV Islom

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Hashimova S.A.

This article is devoted to the study of the phenomenon of asyndeton in the Chinese language.

Xitoy tilida asindeton hodisasi turli xil stilistik uslublarda ifodalanishi mumkin. Bunda ushbu hodisaning ifodalanishi grammatik konstruksiyalarda ham kuzatiladi. Ushbu maqolamizda biz “比” ishtirokidagi gaplarda asindetonning ifodalanishini ko‘rib chiqamiz. Avval “比” ishtirokidagi gaplarda ba’zi bo‘laklarning tushib qolish muammosida to‘htalib o‘tsak.

Odatda “比”dan oldingi va keyingi so‘zlarning xususiyati hamda “比”dan oldingi va keyingi so‘z birikmalarining tuzilish shakli bir xil bo‘ladi. Agarda“比”dan oldingi yoki keyingi so‘zlar orasida o‘xshashlari bo‘lsa, tilning oson kelishishi uchun birini tushirib qoldirish mumkin (odatda “比”dan keyingi qism tushib qoladi). So‘zning tushib qolishi natijasida gapda yuzaga keladigan o‘zgarish uning mazmuniga ta’sir qilmaydi.

1. Asosiy so‘zning tushib qolishi.

Agar “比”dan oldingi va keyingi qismlar A va Vlarning barchasi “ ot, olmosh + 的 + asosiy so‘z” shaklda bo‘lsa, bu yerdagi asosiy so‘z bir xil bo‘lib, ko‘p hollarda “比”dan keyingi asosiy so‘z tushib qoladi. Masalan:

小英的布娃娃比她的（布娃娃）好看¹。

Xiǎo yīngde bùwáwa bǐ tāde (bùwáwa) hǎokàn。

Syao Yingning yumshoq o‘yinchog‘i unikidan (uning yumshoq o‘yinchog‘idan) chiroyli.

老虎的爪子比耗子的（爪子）大。

Láohǔ de zhuǎzi bǐ hàozi de (zhuǎzi) dà。

Yo‘lbarsning tirnoqlari sichqonnikidan (sichqonning tirnoqlaridan) katta.

真丝的衬衫比他的确良的（衬衫）贵。

Zhēnsīde chènshān bǐtā díquè liángde (chènshān) guì。

Haqiqiy ipak ko‘ylak uning dakronidan (uning dakron ko‘ylagidan) qimmat.

uqorida keltirib otilgan misollardagi “的”ni tushirib qoldirish mumkin emas. Agarda tushirib qoldirilsa gap mazmuni ham o‘zgaradi. Masalan:

小英的布娃娃比她好看。

Xiǎo yīng de bùwáwa bǐtā hǎokàn。

Syao Yingning yumshoq o‘yinchog‘i undan chiroyli.

老虎的爪子比耗子大。

Láohǔ de zhuǎzi bǐ hàozi dà。

¹丁声树等。现代汉语语法讲话。北京：商务印书馆，1961年。-143页。

Yo‘lbarsning tirmoqlari sichqondan katta.

真丝的衬衫比的确良贵。

Zhēnsī de chènshān bǐ díquèliáng guì 。

Haqiqiy ipak ko‘ylak dakrondan qimmat.

Chunki “Syao Yingning yumshoq o‘yinchog‘i”ning tashqi ko‘rinishini “u” bilan solishtirish mumkin; “yo‘lbarsning tirmog‘i” va “sichqon” tanasining katta kichikligini qiyoslash mumkin; “haqiqiy ipak ko‘ylak” va “dakron” gazlamalarining narxini ham o‘zaro solishtirish mumkin. Demak, agar qiyosiy gaplardagi “比”dan keyin ot, olmosh aniqlovchi bilan kelganda “的”ning tushib qolishi gap ma‘nosining o‘zgarishiga olib keladi. Shu sababdan ham bunday hollarda “的”ni tushirib qoldirish mumkin emas.

Aniqlovchi va asosiy so‘z qarindoshlik munosabatini anglatsa, so‘z tushib qolish hodisasi yuz bermaydi. Masalan:

这些孩子的父母都比你们的父母年轻。

Zhèxiē háizi de fùmǔ dōubǐ nǐmende fùmǔ niánqīng 。

Bu bolalarning ota-onasi sizlarning ota-onangizdan yosh.

他们的领导比我们的领导能体谅不清

Tāmende língdǎo bǐwǒ mende língdǎo néng tǐliàng bùqīng

Ularning yo‘lboshchisi bizning yo‘lboshchimizdan xalqparvarroq.

2. Asosiy so‘z va yordamchi so‘z“的”ning tushib qolishi.

1) Agar qiyosiy gaplarda A va V ning o‘zi ishtirok etgan bo‘lsa, V ning tarkibida aniqlovchining bo‘lishi mumkin emas, demak, asosiy so‘zdan tashqari yordamchi so‘z ham tushib qolishi mumkin. Bunda ma‘no o‘zgarmaydi. Masalan:

1. 他的字比我（的）（字）潦草。

Tāde zì bǐwǒ (de) (zì) liáocǎo 。

Uning ieroglifi menikidan chiroyli.

2. 王先生的行李比你(的)(行李)多²。

Wáng xiānshēngde xínglǐ bǐ nǐ(de) (xínglǐ) duō 。

Janob Vanning jamadoni senikidan ko‘p.

2) A, V vaqt yoki turli joylar bilan qiyoslanganda, odatda, asosiy so‘z va “的” tushib qoladi. Faqat vaqtni yoki joyini bildiruvchi aniqlovchi qoladi. Masalan :

1. 今年的收成比去年（的）（收成）好多了。

Jīnnián de shōuchéng bǐ qùnián (de) (shōuchéng) hǎo duōle

Bu yilgi hosil o‘tgan yilgiga qaraganda yaxshiroq.

2. 老李这个月的收入比上个月(的)(收入)少。

Lǎolǐ zhègèyuè de shōurù bǐ shànggèyuè(de) (shōurù)shǎo 。

Lao Lining bu yilgi kirimi o‘tgan oynikidan kam.

3) Agarda A va Vning asosiy so‘zi shaxs yoki narsa va hodisa bo‘lsa, “的” bilan birgalikda tushirib qoldirgan ma‘qul. Masalan :

1. 南方的夏天比北方（的夏天）热。

Nánfāng de xiàtiān bǐ běifāng (de xiàtiān) rè 。

Janubning yozi shimolnikidan issiq.

2. 十年前的我要比现在的我更糊涂。

Shí niánqián de wǒ yào bǐ xiànzài de wǒ gèng hútu 。

²实话实说。商务印书馆，2001年。-112页。

Yigirma yil oldingi men bilan hozirgisi yanada mujmalroq.

比 ishtirokidagi gaplarda aniqlovchining tushib qolishi.

Agar A va V ning otli soʻz birikmasida aniqlovchi bir xil boʻlib, asosiy soʻz turlicha boʻlsa, unda “比”dan keyingi qismdagi aniqlovchi tushib qolishi mumkin. Masalan :

1. 我看他的法语说的比英语流利。

Wǒkàn tāde fáyǔ shuōde bǐ yīngyǔ liúli

Menimcha, uning fransuz tilida gapirishi ingliz tilidan ravonroq.

2. 他的小说比诗歌写得好。

Tāde xiǎoshuō bǐ shīgē xiědehǎo 。

Uning hikoyalari she'rlaridan yaxshi yozilgan.

3. Aniqlovchi va asosiy soʻzlar orasidan oʻxshash qismning tushib qolishi.

Agar A va V larning otli soʻz birikmalarida aniqlovchi va asosiy soʻzlar bir xil boʻlsa, unda “比” dan oldingi yoki keyingi oʻxshash qismi tushib qolishi mumkin. Masalan :

1. 你的口头表达能力比 (你的) 笔头 (表达能力) 好。

Nǐde kǒutóu biǎodá nénglǐ bǐ (nǐde) bǐtóu (biǎodá nénglǐ) hǎo 。

Uning ogʻzaki ifodalash salohiyati yozma ifodalash salohiyatidan yaxshi.

2. 我们学英语的时间比 (我们) 学法语 (的时间) 长 。

Wǒmen xué yīngyǔ de shíjiān bǐ (wǒmen) xué fáyǔ (de shíjiān) cháng 。

Bizning ingliz tili oʻrganish vaqtimiz fransuz tilini oʻrganish vaqtimizdan koʻp.

3. 他们 (前进的脚步) 比我们前进的脚步快。

Tāmen (qiánjìn de jiǎobù) bǐ wǒmen qiánjìn de jiǎobùkuài.

Ulardan bizning ildamlashimiz tezroq.

4. Ega-kesimli sodda gaplarda ega yoki kesimning tushib qolishi.

Agar A va Vdagi ega-kesimli sodda gaplarda ega bir xil boʻlsa, unda “比”dan oldingisini ham, keyingisini ham tushirib qoldirish mumkin; agarda kesimlar bir xil boʻladigan boʻlsa, unda yuqoridagidek “比”dan oldingisini ham, keyingisini ham tushirib qoldirish mumkin. Masalan:

1. 他睡觉比我 (睡觉) 早。

Tā shuǐjiào bǐwǒ (shuǐjiào) zǎo 。

U mendan koʻra erta uxlaydi.

2. 我 (吃饭) 比他吃饭香。

Wǒ (chīfàn) bǐtā chīfàn xiāng 。

Men undan koʻra yaxshi ovqatlanaman.

3. 我学汉语比 (我) 学日语快。

Wǒ xué hànyǔ bǐ (wǒ) xué rìyǔ kuài

Men xitoy tilini yapon tilidan tez oʻrganyapman.

4. 我住在北京比我住在广州好。

Wǒ zhùzài Běijīng bǐwǒ zhùzài Guǎngzhōu hǎo 。

Men Pekinda Guanjudagidan yaxshi yashayman.

1,2- misollarni “他比我睡觉早”, “我吃饭比他香” tarzida oʻzgartirishimiz mumkin. 3- misolni esa “学汉语比我学日语好” kabi oʻzgartirish mumkin emas. 4- misolni ham “住在北京比我住在广州好” deb boʻlmaydi. Agar ega-kesimli sodda gaplarda ega va kesimlar oʻxshash boʻlmasa, unda soʻzlarning tushib qolish hodisasi kuzatilmaydi. Masalan:

1. 你吃盐比他吃米多。

Nǐ chī yán bǐtā chī mǐ duō 。

Seni tuz yeyishing uni guruch yeyishidan koʻp.

5. “A 比 V” hol bo‘lib kelganda odatda 比 dan oldingi qism A tushib qoladi.

“A 比 V” hol bo‘lib kelgan gaplar bir xil voqea-hodisaning turli vaqt va turli joylardagi holatini qiyoslaydi. Agar 比 dan oldingi qism A “现在 (hozirgi payt)”, “当时(o‘sha payt)”, “在这里(bu yerda)” kabi ma'nolarni ifodalayotgan bo‘lsa, Ani tushirib qoldirish mumkin. Masalan:

1. 微风起来，吹动她的短发，确乎比去年白得多了。(现在)

Wēifēng qǐlái, chuīdòng tāde duǎnfā, quèhū bǐ qùnián báidé duōle 。(xiànzài)

Mayin shamol turib, uning kalta sochlarini xilpiratardi, haqiqatdan oqarganlari o‘tgan yilgidan ko‘p. (hozir)

2. 我的身体比前好多了。(现在)

Wǒde shēntǐ bǐ qián hǎo duōle 。(xiànzài)

Sog‘ligim avvalgiga qaraganda ancha yaxshi.(Hozirgi payt)

3. 这几个孩子都比在那里听话 (在这儿)

Zhè jǐgè hái zǐ dōubǐ zài nàlǐ tīnghuà (zài zhèr)

Bu bolalar u yerdagiga qaraganda esli. (Bu yerda)

4. 今天我们比第次谈得多。

Jīntiān wǒmen bǐ dì cì tán dé duō。

Bugun biz birinchi martadagidan ko‘proq gaplashdik.

6. A va Vning ikkisi ham fe‘lli sodda gaplar yoki sifat sodda gaplar bo‘lsa, odatda so‘z tushib qolmaydi. Masalan:

1. 有文化比没有文化好。

Yǒuwénhuà bǐ méiyǒuwénhuà hǎo。

Madaniyatli madaniyatsizdan yaxshi.

Ba‘zan kontekstda yoki til muhitida o‘zaro tushunarli bo‘lsa, “比”dan oldingi qism tushib qolishi mumkin.

2. 王琳今天比那天说话都多，比干一天木匠活还要累。

Van Li bugun o‘tgan kunga qaraganda yanada ko‘p gapirdi, ko‘p gapirishi bir kun duradgorlik qilishdan charchatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xitoy tilida asindeton hodisasi turli xil grammatik konstruksiyalarda keng uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI (REFERENCES)

1. 故播刘。现代汉语动词与形容词特点。- 北京，2003年。
2. 实话实说。- 商务印书馆，2001年。
3. 丁声树等。现代汉语语法讲话。- 北京：商务印书馆，1961年。
4. С.А.Хашимова. Хитой тили грамматикаси. - Т., 2012 йил.
5. С Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
6. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
7. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ*. 391 с (p. 361).
8. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.

9. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
10. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
11. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
12. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
13. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
14. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
15. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
16. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
17. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
18. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化, 87, 0
19. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
20. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019